NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Navoiy innovatsiyalarlar universiteti
rektor ____________ J.Mavlonov
2026-yil " 03 " 03

Ro'yxatga olindi ______
2026-yil " 02 " 03

Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun

# YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI
# DASTURI

Navoiy – 2026

## MUNDARIJA

1. Kirish .......................................................................................4
2. Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan fanlar dasturining mazmuni. "Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)" yo'nalishi fanlarining mazmuni.......................................................................................4
3. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi .......................................5
4. Baholash mezoni .......................................................................................6
5. Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan fanlar bo'yicha savollar to'plami .......................................................................................8
6. Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar va manbalar .....................17

Ushbu dastur Navoiy innovatsiyalar universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun yo'nalish fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o'tkazish uchun tuzilgan bo'lib, universitet Kengashining "____"- fevral 2026-yil 7-sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

"Filologiya va tillarni o'qitish" kafedrasida muhokama qilingan va "__" "_____" 2026-yil ____ -sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Asos: - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 16-noyabrda 1963-3-son bilan qayta ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida Nizom;

- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 26-sentabrda 3069-son bilan ro'yxatga olingan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom.

- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018–sonli buyrug'i.

Tuzuvchi:

D.X.Yo'ldosheva — Navoiy innovatsiyalar universiteti "Filologiya va tillarni o'qitish" kafedrasi dotsent v.b., f.f.f.d. (PhD)

Taqrizchilar:

R.N.Yusubova — Renessans ta'lim universiteti "Filologiya" kafedrasi professori

## 1.Kirish

Yakuniy davlat attestatsiyasining maqsadi talabalarning asosiy kasbiy ta'lim dasturini o'zlashtirish natijalarining davlat ta'lim standartining tegishli talablariga muvofiqligini aniqlashdir.

Mazkur dastur bakalavriat: 60230100 - "Filologiya va tillarni o'qitish (O'zbek tili)" ta'lim yo'nalishi bitiruvchi talabalari uchun mo'ljallangan."Hozirgi o'zbek adabiy tili", "O'zbek dialektologiyasi", "O'zbek tili tarixi", "Ona tili o'qitish metodikasi" fanlarni jamlagan holda o'zbek tilining asosiy tushunchalari va toifalarini o'rgatish, hamda amaliyotda ularni qo'llay olish xususiyatini aniqlashdan iborat.

## 2.Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan fanlar dasturining mazmuni.

Filologiya va tillarni o'qitish (O'zbek tili) yo'nalishi fanlarining mazmuni

60230100 - "Filologiya va tillarni o'qitish (O'zbek tili)" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari o'qishni tamomlagandan so'ng, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'zbek tili fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, filologiya muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tiliga oid masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

-umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standartiga muvofiq umumiy o'rta ta'limda o'zbek tili fani o'qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

-o'rta maxsus va professional ta'limda o'zbek tili fani o'qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

-O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish; umumiy o'rta ta'lim maktabi, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'limlarni majmuasini qamrab oladi.

## 3.Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi Navoiy innovatsiyalar universiteti Kengashining 202__ yil __ ________ №___-sonli qaroriga muvofiq yozma ravishda o'tkaziladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi universitet o'quv jarayoni grafigiga mos sanalarda tashkil etilib, talabalarga aniq vaqti kamida 30 kun oldin e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi tayyorgarlik va maslahatlar o'quv bo'limi tomonidan tasdiqlangan jadval asosida tashkil etilib, kafedra tomonidan biriktirilgan professor-o'qituvchilar tomonidan olib boriladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga 60230100 - "Filologiya va tillarni o'qitish (O'zbek tili)" bakalavr ta'lim yo'nalishi o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari natijalari asosida ularga ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasi berish haqida qaror qabul qiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini baholash ushbu dasturning "Baholash mezonlari" bo'limidagi talablar asosida amalga oshiriladi

Yakuniy davlat attestatsiya sinovi bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi yakuniy davlat attestatsiya komissiyasining majlis bayoni rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs o'qish muddati tugagandan so'ng, arizasiga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini keying 3 yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Yakuniy davlat attestatsiya sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun universitet rektorining buyrug'i bilan appelyatsiya komissiyasi tuziladi.

Yakuniy davlat attestatsiya jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar baho e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egalar.

## 4.Baholash mezoni

Talabalar bilimini baholashda fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining 60230100 - "Filologiya va tillarni o'qitish (O'zbek tili)" ta'lim yo'nalishi malaka talablaridagi bitiruvchiga nisbatan nazarda tutilgan umumiy malaka talablarga ham javob bera olish darajasi aniqlanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini yozma shaklda o'tkazilib, har bir bitiruvchi talabalaga alohida imtihon biletlari tarqatiladi. Imtihon biletlari ushbu dasturning "Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan fanlar bo'yicha savollar to'plami" bo'limidagi savollardan 5 ta savoldan iborat etib tuziladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini baholashda har bir savol alohida 100 ballik baholash tizimda baholanib, umumiy baho har bir savoldan olingan baholarni o'rta arifmetigi tarzida butun songa yaxlitlab qo'yiladi.

Talabani yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidagi bilim darajasini baholashda quyidagi jadvalda keltirilgan mezonlarga amal qilinadi:

| Baho | Bilim darajasi |
|---|---|
| 1 | 2 |
| 5 (a'lo)<br>90-100 ball | Agar talaba imtihon biletida berilgan savollarga mantiqiy, izchil javob yozsa va qo'shimcha tushuntirishlar talab etilmasa, "a'lo" bahosi qo'yiladi. Mantiqiy xulosalar chiqaradi. Adabiy fikrini ifodalash me'yorlariga amal qiladi. Talabaning javobi batafsil, ishonchli, aniq ifodalangan. Talaba ыavol mohiyatini to'liq, chuqur va ilmiy asosda ochib beradiб nazariy tushunchalarga aniq ta'riflar beradi. Dialektologik va grammatik hodisalarni tahlil qila oladi. Adabiy til va sheva birliklarini qiyoslaydi, ilmiy terminlardan to'g'ri va o'rinli foydalanadi. Javob ravon, mantiqli, grammatik xatolarsiz misollar bilan tasdiqlaydi. |
| 4 (yaxshi)<br>70-89 ball | Talaba savollarga tizimli, izchil va ishonchli javob yozsa, "yaxshi" bahosi qo'yiladi. Materialni tahlil qilish qobiliyatini namoyish etadi, lekin uning barcha xulosalari asosli va dalillarga asoslangan emas. Adabiy fikrini ifodalash me'yorlariga amal qiladi. Savolni to'g'ri va yetarli darajada yoritadi. Asosiy tushunchalarni biladi, lekin ayrim joylarda chuqurlik yetishmaydi. Misollar keltiradi, ammo tahlil qisman. Terminologik mayda kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Nutqi tushunarli, ammo javobda individual xatolar va noaniqliklarga yo'l qo'yadi. |
| 3 (qoniqarli)<br>60-69 ball | "Qoniqarli" baho, agar talaba javob yozganda, asosan, kasb bo'yicha kelgusi ish uchun zarur bo'lgan hajmda dasturiy materialni bilsa, qo'yiladi. Shu bilan birga, u savollarga javob yozishda xato qiladi. U tomonidan berilgan ibora yetarlicha aniq emas, javoblarda noaniqliklarga yo'l qo'yiladi. Savolga qisman javob beradi. Nazariy bilimlar yuzaki, misollar kam yoki noto'g'ri, tahlil va xulosa yetarli emas. Nutqda imlo va uslubiy xatolar mavjud. |
| 2 (qoniqarsiz)<br>59-50 ball | Agar javob berishda asosiy dastur materialini bilishda sezilarli kamchiliklar aniqlansa, talabaga "qoniqarsiz" baho qo'yiladi; imtihon bileti savollariga javob yozishda fundamental xatolarga yo'l qo'yadi. Materiallar nomuvofiq berilgan, bilimlar tizimining mavjudligini ko'rsatmaydi. Adabiy fikrini ifodalash me'yorlarini sezilarli darajada buzgan. |

5. Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan fanlar bo'yicha savollar to'plami

**"Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi uchun savolnoma**

1. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ijtimoiy ahamiyati.
3. Adabiy til va umumxalq tilining o'zaro aloqasi.
4. Hozirgi o'zbek adabiy tilida unlilar.
5. Hozirgi o'zbek adabiy tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi.
6. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ijtimoiy ahamiyati.
7. Undosh fonemalarning fokuslari.
8. Adabiy til va umumxalq tilining o'zaro aloqasi.
9. "Hozirgi o'zbek adabiy tili"ning davlat tili sifatidagi mavqeyi.
10. Arabcha o'zlashmalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
11. Alohida olingan so'zlarning morfologik xususiyatlari.
12. Ravish so'z turkumi va uning grammatik kategoriyalari.
13. Amaldagi o'zbek yozuvining imlo qoidalari.
14. Leksema o'zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari.
15. Otning ma'no turlari.
16. Ko'chirma gap.
17. Ot so'z turkumining grammatik imkoniyatlari.
18. Unlilar orfoepiyasi muammosining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasini tahlil qilish.
19. Leksema o'zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari.
20. Frazeologiya.
21. Otlarda subyektiv baho shakllari.
22. Ko'chirma gap.

23. Undoshlar orfoepiyasi muammosining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasini tahlil qilish.
24. Leksema o'zlashtirish yo'llari: 1) jonli so'zlashuv orqali; 2) bosma manbalar orqali.
25. Frazemaning ko'chma ma'noli turg'un birlik ekanligi.
26. Sifatning ma'no turlari.
27. Ko'p komponentli qo'shma gaplar.
28. Hozirgi o'zbek adabiy tili taraqqiyotini belgilovchi omillar.
29. Leksema o'zlashtirish usullari: 1) o'zicha olish; 2) kalkalab olish.
30. Frazemaning ifoda va mazmun plani.
31. Sifat darajalari.
32. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilarning qo'llanishi.
33. Frazemalarning ishlatilish doirasi va zamonaviyligi.
34. Sonning ma'no turlari.
35. Olmoshning semantik xususiyatlari.
36. Ergashgan qo'shma gaplar.
37. Ravishning semantik xususiyatlari.
38. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.
39. Ko'p komponentli qo'shma gaplar.
40. Sonning hisob (numerativ) so'zlari bilan qo'llanishi.
41. So'z o'zlashtirishning so'z qo'llashdan farqi.
42. Frazemalarning kasb-hunarga ko'ra chegaralanishi.
43. So'z o'zlashtirishning so'z qo'llashdan farqi.
44. Ko'p komponentli qo'shma gaplar.
45. Okkazional ma'nolarning yuzaga kelishi.
46. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilarning qo'llanishi.
47. Frazeologik monosemiya va polisemiya.
48. Frazemaning ifoda va mazmun plani.
49. Sifat darajalari.
50. Otlarda subyektiv baho shakllari.
51. Amaldagi o'zbek yozuvining imlo qoidalari.
52. Leksema o'zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari.
53. Grammatik shakl, grammatik ma'no va grammatik kategoriya.
54. Tobe va hokim gapni ajratish yo'llari.
55. O'zga gap.
56. Fe'l so'z turkumining grammatik imkoniyatlari.
57. Arabcha o'zlashmalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
58. Alohida olingan so'zlarning morfologik xususiyatlari.
59. Fonemalarning differensial va integral belgilari.
60. So'z o'zlashtirishning so'z qo'llashdan farqi.

## "O'zbek dialektologiyasi" fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi uchun savolnoma

1. O'zbek dialektologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Dialekt, sheva va lahja tushunchalariga ta'rif bering, ularning o'zaro farqi.
3. O'zbek tilining hududiy bo'linishi va uning ilmiy asoslari.
4. O'zbek dialektologiyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari.
5. O'zbek dialektologiyasini o'rganishda asosiy metodlar.
6. Dialektologiyada areal lingvistika tushunchasi.
7. O'zbek dialektologiyasining adabiy til bilan munosabati.
8. Dialektologik tadqiqotlarda sheva materiallarini to'plash usullari.
9. O'zbek tilining asosiy lahjalari (qarluq, qipchoq, o'g'uz) va ularning xususiyatlari.
10. Qarluq lahjasiga mansub shevalarning fonetik va leksik xususiyatlari.
11. Qipchoq lahjasi shevalarining asosiy belgilari.
12. O'g'uz lahjasi va uning o'zbek shevalaridagi ko'rinishlari.
13. Shahar shevalari va qishloq shevalari o'rtasidagi farqlar.
14. O'zbek shevalarining hududiy tarqalish xaritasi haqida tushuncha.
15. O'zbek shevalarida unli tovushlarning farqlanishi.
16. Shevalarda uchraydigan undosh tovush o'zgarishlari.
17. O'zbek shevalarida urg'u va intonatsiya masalasi.
18. Shevalarda otlarning kelishik va ko'plik shakllari.
19. Fe'l shakllarining shevalardagi grammatik farqlari.
20. O'zbek shevalarida yordamchi so'zlar va qo'shimchalar.
21. O'zbek shevalariga xos leksik birliklar va ularning turlari.
22. Dialektal so'zlarning adabiy tildagi muqobillari.
23. O'zbek shevalarida etnografik leksika.
24. Kasb-hunar va turmush tarziga oid dialektal so'zlar.
25. Berilgan sheva matni asosida fonetik va leksik tahlil qiling.
26. Dialektal birliklarning adabiy tilga ta'siri misollar bilan tushuntiring.
27. O'zbek dialektologiyasining zamonaviy muammolari.
28. Dialektlarni saqlash va o'rganishning madaniy ahamiyati.
29. O'zbek shevalarining milliy til taraqqiyotidagi o'rni.
30. Dialektologik materiallarning ilmiy va amaliy ahamiyati.
31. O'zbek dialektologiyasini o'rganishda V. V. Reshetovning xizmatlari.
32. E. D. Polivanov va uning o'zbek shevalari haqidagi qarashlari.
33. O'zbek dialektologiyasida mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ishlari.
34. Dialektologik tadqiqotlarda tarixiy-lisoniy yondashuv.
35. O'zbek shevalarini o'rganishda xalq og'zaki ijodi materiallari.
36. O'zbek shevalarining areal belgilari va ularni aniqlash mezonlari.
37. Dialektologiyada izogloss tushunchasi.
38. O'zbek shevalarining turkiy tillar tizimidagi o'rni.
39. O'zbek va qo'shni tillar shevalari o'rtasidagi ta'sir va aloqalar.

40. Shevalarda til kontaktlari natijasida yuzaga kelgan hodisalar.
41. O'zbek shevalarida singarmonizmning saqlanish darajasi.
42. Unlilar tizimining shevalarga ko'ra farqlanishi.
43. Undosh tovushlarning assimilyatsiya va dissimilyatsiyasi.
44. Shevalarda proteza, epenteza va apokopa hodisalari.
45. O'zbek shevalarida urg'u o'zgarishlari.
46. Shevalarda fe'l zamonlarining variantlari.
47. O'zbek shevalarida buyruq-istak mayli shakllari.
48. Kelishik qo'shimchalarining dialektal ko'rinishlari.
49. Shevalarda so'z tartibi va sintaktik farqlar.
50. O'zbek shevalarida so'z yasalishi xususiyatlari.
51. O'zbek shevalarida arxaik va yangi leksika.
52. Dialektal sinonimiya va leksik variatsiya.
53. Shahar muhitida shevalarning o'zgarishi.
54. Globallashuv sharoitida shevalarning saqlanishi.
55. O'zbek shevalarida ijtimoiy omillar ta'siri.
56. Dialektologik ekspeditsiyalarni tashkil etish.
57. Dialektal matnlarni transkripsiya qilish usullari.
58. O'zbek shevalari bo'yicha lug'atlar tuzish prinsiplari.
59. Dialektologik materiallarning ta'limdagi o'rni.
60. O'zbek dialektologiyasining kelajakdagi rivojlanish istiqbollari.

**"O'zbek tili tarixi" fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi uchun savolnoma**

1. O'zbek tili tarixi fani manbalari.
2. Oltoy tillari oilasi haqida tushuncha.
3. Turk va mo'g'ul tillarining alohida ajralib chiqishi.
4. Qadimgi turk davrining vujudga kelishi.
5. Qadimgi turkiy yozuvlar.
6. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi.
7. Eski o'zbek tili unlilar tizimi, uning harfiy ifodalari, transliteratsion va transkriptsion xususiyatlari.
8. Qadimgi turkiy til leksikasi.
9. Turli sohalarga oid so'z va terminlar; o'z va o'zlashgan qatlam.
10. Eski o'zbek tili morfologik xususiyatlari taraqqiyotidagi uch davr, so'z turkumlari, ularning miqdori, ajratilishi tamoyillari grammatik kategoriyalari, ularning eski o'zbek tilidagi o'ziga xosligi.
11. Eski o'zbek tilida otning ta'rifi, leksik-semantik, morfologik, sintaktik belgilari, uning ichki kategoriyalari.
12. Eski o'zbek tilida sifatning ta'rifi, morfologik belgilari, asliy va nisbiy sifatlar, sifat darajalarining morfologik-sintaktik va sintaktik usullar bilan hosil qilinishi, eski o'zbek tiliga xos xususiyatlari.
13. Sifat yasalishi, otlar (ism)dan, fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar.
14. Eski o'zbek tilida sonning ta'rifi, unda so'z yasalish tizimining yo'qligi, sanoq va tartib sonlar.
15. Eski o'zbek tilida olmoshning ta'rifi, boshqa so'z turkumlaridan farqi, uning ma'no turlari, sintaktik vazifasi.
16. Eski o'zbek tilida fe'l. Fe'lning ta'rifi, ichki kategoriyalari haqida umumiy ma'lumot.Fe'lning funktsional formalari.
17. Eski o'zbek tilida ravishning ta'rifi, ma'no (semantik) turlari, ravishlarda boshqa tillardan so'z o'zlashtirish masalasi.
18. Eski o'zbek tilida ravishlarning yasalishi, ravish yasovchi qo'shimchalar.
19. Eski o'zbek tilida yordamchi so'z turkumlarining tarixiy taraqqiyoti.
20. Eski o'zbek tilida alohida olingan so'zlar. Ko'makchilar.
21. Eski o'zbek tilida bog'lovchilar.
22. Eski o'zbek tilida teng bog'lovchilarning biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi, inkor turlari, ularning turkiy va o'zlashma leksik tarkibi, har bir bog'lovchining ma'no xususiyatlari, eski o'zbek tilida qo'llanish imkoniyatlari.
23. Eski o'zbek tilida yuklama va modal so'zlar.
24. Eski o'zbek tilida undov va taqlidiy so'zlar. Undov so'z ta'rifi, uning ma'no guruhlari.
25. Turkiy va o'zlashgan undovlar, ularning matnda qo'llanish xususiyatlari. She'riy san'atdagi o'rni.
26. Eski o'zbek tilida so'z birikmasi va gap. Gap turlari. Eski o'zbek tili sintaksisiga umumiy tavsif.
27. O'zbek adabiy tili tarixi predmeti, adabiy til, uning manbalari.
28. Adabiy til, uning ta'rifi, me'yorlashtirilgan til ekanligi, yozma va og'zaki shakllari.
29. O'zbek adabiy tili, uning tarixiy ildizlari, boshqa tillar bilan munosabati.
30. O'zbek adabiy tili va turkiy adabiy tillar. Turkiy til oilasi.
31. O'zbek adabiy tilining boshqa turkiy adabiy tillarga fonetik, leksik va grammatik jihatidan o'xshash va ulardan farqli xususiyatlari.
32. O'zbek adabiy tili va qadimgi turkiy til.
33. O'zbek adabiy tili va uning taraqqiyot bosqichlari.
34. O'zbek adabiy tilini davrlashtirish..
35. Eski turkiy tilning tayanch dialekti masalasi.
36. XI-XIV asrlardagi adabiy tilning taraqqiy etishida tarixiy voqealarning ahamiyati.
37. Eski o'zbek adabiy tili taraqqiyotida Durbek. Atoiy, Gadoiy, Sakkokiy va Lutfiylarning o'rni.
38. Alisher Navoiy – o'zbek tilining asoschisi.
39. Alisher Navoiyning turkiy va turkiy bo'lmagan tillar boyligidan foydalanish tamoyillari.

40. XVII-XIX asrlar adabiy tilining «demokratlashuvi» tushunchasiga izoh, adabiy tilga xalq so'zlashuv tili ta'sirining kuchayishi.

41. XIX asrning 2-yarmidan inqilobgacha bo'lgan davr tilining umumiy tavsifi.

42. O'zbek adabiy tilida gazeta-publitsistik uslubning paydo bo'lishi va o'ziga xosligi.

43. Gap, uning bo'laklari, bosh bo'laklar. Gap bo'laklariga ajratish tamoyillariga qisqacha izoù.

44. Gap bo'laklarining sodda va yoyiq (so'z birikmasi, gap ko'chimi, izofalar) holda qo'llanishi, gap bo'laklarining sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi o'ramlari (oborotlari) bilan murakkablashuvi.

45. Qo'shma gaplar, ularning qadimgi turkiy va eski o'zbek tilidagi o'xshash va ulardan farqli tomonlari haqida umumiy ma'lumot.

46. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar, ularning tarkibidagi gaplarning semantik munosabatlari, yodgorliklar va davrlar bo'yicha qo'llanish xususiyatlari, ularda bog'lovchilarning ishlatilishi va o'ziga xosligi.

47. Qo'shma gap ko'chimidagi (oraliq) sodda gaplar va ularda kesimning kengayishi, ular komponentlarining o'zaro bog'lanish xususiyatlari, semantik munosabatlari.

48. O'rxun yozuvi va uning yodgorliklari.

49. Enasoy va Talas yodgorliklari.

50. O'rxun-Enasoy yozuvi alifbosi jadvalini tuzish, ko'p variantli harfiy belgilarga izoh berish.

51. Oltoy tillari oilasi haqida tushuncha. Turk va mo'g'ul tillarining alohida ajralib chiqishi.

52. Turkiy-run yozuvi va bitiklari.

53. Uyg'ur yozuvi va uning bitiktoshlari.

54. Qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tili unlilar tizimi, undagi miqdoriy va sifat o'zgarishlar.

55. O'zbek tili yozma yodgorliklarida grammatik son va kelishik shakllari.

56. O'zbek tili yozma yodgorliklardan egalik shakllari.

57. O'zbek tili yozma yodgorliklarida sifatning modal shakllari va sifat yasalish.

58. O'zbek tili yozma yodgorliklarida olmoshlarning ma'no turlari.

59. O'zbek tili yozma yodgorliklarida ot yasalishi.

60. O'zbek tili yozma yodgorliklarida fe'lning mayl shakllari.

**"Ona tili o'qitish metodikasi" fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi uchun savolnoma**

1. Ona tili o'qitish metodikasining predmeti va vazifalari.

2. Ona tili o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.

3. Ona tili ta'limining maqsadi va asosiy yo'nalishlari.

4. Metodika fanining shakllanish va rivojlanish bosqichlari.

5. Kompetensiyaviy yondashuvning ona tili ta'limidagi ahamiyati.

6. Til kompetensiyasi va nutqiy kompetensiya tushunchalari.

7. Ona tili ta'limida davlat ta'lim standartlarining o'rni.

8. Ona tili o'qitishda metod, usul va vosita tushunchalari.

9. Metodik tamoyillar va ularning turlari.

10. Ona tili ta'limida onglilik va faollik tamoyili.

11. Ona tili darsining turlari va ularning xususiyatlari.

12. Darsning asosiy bosqichlari va ularning vazifalari.

13. Darsning kirish qismida bajariladigan ishlar.

14. Yangi bilim berish bosqichining metodik xususiyatlari.

15. Mustahkamlash bosqichining ahamiyati.

16. Darsning yakuniy bosqichi va refleksiya.

17. Dars konspekti (ishlanmasi) tuzish talablari.

18. Zamonaviy ona tili darsiga qo'yiladigan talablar.

19. An'anaviy va zamonaviy darslarning farqi.

20. Ona tili darslarida vaqt taqsimoti.

21. Ona tili o'qitishda interfaol metodlarning o'rni.

22. Muammoli ta'lim va uning ona tili darslarida qo'llanishi.

23. O'yin texnologiyalarining metodik ahamiyati.

24. AKTdan foydalanishning afzalliklari.

25. Integratsiyalashgan darslar va ularning samaradorligi.

26. Differensial yondashuv tushunchasi.

27. Individual va guruhli ishlash metodlari.

28. "Aqliy hujum" metodining mohiyati va vazifasi.

29. Klaster va konseptual xaritalardan foydalanish.

30. Mustaqil ishlarni tashkil etish metodikasi.
31. Fonetika va grafika bo'limini o'qitish metodikasi.
32. Leksikani o'qitishning maqsad va vazifalari.
33. Grammatikani o'qitishning metodik asoslari.
34. Morfologiyani o'qitishda mashqlarning o'rni.
35. Sintaksisni o'qitish metodikasining xususiyatlari.
36. So'z yasalishini o'rgatish usullari.
37. Imlo o'qitish metodikasi va uning tamoyillari.
38. Punktuatsiyani o'rgatishda tahlilning ahamiyati.
39. Grammatik tahlil turlari va metodik vazifasi.
40. Qoidani chiqarish va mustahkamlash usullari.
41. Nutqni rivojlantirish tushunchasi va uning ahamiyati.
42. Og'zaki nutqni rivojlantirish usullari.
43. Yozma nutqni rivojlantirish metodikasi.
44. Matn bilan ishlashning metodik asoslari.
45. Bayon yozishga o'rgatish metodikasi.
46. Insho yozishga tayyorlash bosqichlari.
47. Dialogik va monologik nutqni rivojlantirish.
48. So'z boyligini oshirish yo'llari.
49. O'quvchilar nutqidagi xatolar va ularni bartaraf etish.
50. Nutq madaniyatini shakllantirish usullari.
51. Ona tili darslarida baholashning maqsadi.
52. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari.
53. Formativ va summativ baholash.
54. Baholash mezonlari va ularni qo'llash.
55. Test topshiriqlarini tuzish talablari.
56. Og'zaki va yozma nazorat ishlarining xususiyatlari.
57. O'quvchilar bilimini tahlil qilish usullari.
58. Dars samaradorligini aniqlash mezonlari.
59. O'qituvchining metodik mahorati tushunchasi.
60. Ona tili o'qitish metodikasining bugungi dolzarb muammolari.

**Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar va manbalar:**


1. Sodiqov Q. Til tarixi. (Ilk o'rta asrlarda turkey dunyoda kechgan lingvomadaniy jarayonlar). T.; "Innovatsiya-ziyo" 2022
2. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. –Toshkent, 1982.
3. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.2000.
4. Rahmonov N.,Sodiqov Q, O'zbek tili tarixi. – T.O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2008.
5.Tursunov U., O'rinboyev B., Aliyev A. O'zbek adabiy tili tarixi. – T.O'qituvchi. 1995.
6. Mahmudov Q. XIII-XIV turkiy yozma obodalar tilining fonetik sistemasi. T. Fan. 1990.
7. Muxtorov J., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. – T. O'qituvchi. 1995.
8. Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari. T.G'.G'ulom.2004.
9. Fozilov E. O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi. T.1965.
10. Rahimov S.T.., Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006.
11. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanmasi. 1-qism. – Toshkent, Talqin, 2005.
12. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik– Toshkent, 2005.
13. Qilichov E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Ma'ruza matnlari. To'ldirilgan 2 -nashri. – Buxoro: "Buxoro universiteti", 2001.
14. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. O'quv qo'llanma T.: O'zbekiston, 2002.
15. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T., 2002.
16.Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik). –T., 2006.
17. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro'z, 2016.
18. Murodova N. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2019.
19. Абдуллаев Ф. Диалектал луғат тузиш принциплари ҳақида // ЎТА – Тошкент, 1966. № 2,39-бет.
20. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. – Тошкент: Фан, 1978.
21. Абдурахмонов Д. Ўзбек шевалари морфологиясининг ўрганилиши / Ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. 248-271-бетлар.
22. Алиев А. Ю., Назаров К. Н. Ўзбек тилининг маҳаллий шевалари бўйича материал тўпловчилар учун методик қўлланма. -Тошкент: 1976.

23. Бегалиев М.Қ. Ўзбек тилининг Қорабулоқ шеваси лексикаси. -Тошкент: Iqtisod-Moliya. 2007.
24. Yo'ldosheva Sh. Ona tilidan PISA topshiriqlari. T.: "Innovatsiya-ziyo" , 2022
25. Yo'ldosheva Sh. O'zbek tili ta'limida innovatsion texnologiyalar. T.: "Innovatsiya-ziyo" 2021, 126 b.
26. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi.T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
27. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tilini o'qitish metodikasi. T: Fan va texnologiyalar, 2012.
28. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. – T: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.